

MAKTAB O`QUVCHILARINING KASBGA BO`LGAN QIZIQISHINI ANIQLASH MASALALARINING MOHIYATI VA FAOLIYATNING INSON RUHIYATIDAGI O`RNI.

*Navoiy viloyati Karmana tumani
28- maktab psixologi **Musayeva Munisa**,
Navoiy Davlat Pedagogika Instituti
1-kurs magistranti **Kamolova Sabina***

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab o`quvchilarini kasbga yo`naltirishda dastlabki psixologik jarayonlar tahlil etilgan bo`lib, bu jarayonda psixologning kasbiy mahorati, kasb tanlashga oid bilim va ko`nikmalari, vazifalari, shuningdek kasb tanlashda shaxs hislatlari, o`quvchi psixologiyasi, o`quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko`rsatuvchi mezonlar mazmuni va uning kelajakdagi kasbiy faoliyati uning ruhiyatidagi roli haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so`zlar: qobiliyat, faoliyat, o`smir, kasbga yo'naltirish, layoqat.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi barcha maktablarda psixolog shtatlari tashkil etilgani yoshlarimizning turli yosh davrlaridagi inqirozlarni aniqlash va bu davrni yengil boshdan kechirishlari bilan bir qatorda ularga psixologik xizmat ko`rsatish va o`quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirish kabi bir nechta maqsadlarni amalga oshirish uchun qo`l keladi. Kasbga yo'naltirishning asosiy maqsadi o`quvchilarga tanlovda yordam berishdir. Kasbga yo'naltirish bo'yicha har qanday loyiha yoshlarda mehnatga ongli va ijobiy munosabatni shakllantirish shaklida o'z oldiga maqsadlar qo'yadi.

Bugungi kunda insonlardagi biror bir faoliyatga, kasbga nisbatan qiziqishini va qobiliyatini aniqlashning bir nechta innovatsion usullari va psixologik testlari mavjud, bu o'quvchilarga kasb tanlash uchun keng maydon yaratadi. Masalan:

- _ “Maqsadlarga intilish” testi,
- “Tashkilotchilik qobiliyatini aniqlash” testi,
- “Kasb tiplarini aniqlash” metodikasi,
- “Muloqotchanlik darajasini aniqlash” testi,
- “O`quvchilarning qiziqishlarini aniqlash” so`rovnomasi,
- “O`quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va intilishlarini aniqlash” metodikasi,
- “Shaxs yo`nalganligini aniqlash” metodikasi,
- “O`quvchilarning fanlarga bo`lgan qiziqishlarini aniqlash” testi,
- “Kasb tanlash motivini aniqlash” metodikasi,
- “O`quv motivatsiyasining yo`nalganligini diagnostika qilish” metodikasi,

O`quvchilarni qo'llab-quvvatlash, kelajakda ishga joylashishda kasbiy yo'nalish bilan bog'liq masalalarda yordam beradi. Shuningdek, o`quvchilarda kelajakdagi kasb va boshqa shunga o'xshash faoliyat to'g'risida adekvat qaror qabul qilish uchun individual maslahatlarga ehtiyoj bor. Maktab psixologi esa bu jarayonda o`quvchilar uchun eng yaqin va to'g'ri maslahatchi va yo'naltiruvchidir. Buni esa albatta, maxsus testlarning natijalariga ko'ra amalga oshirish maqsadga muvofiq. Asosiy maqsad - bolaga qiziqishlariga muvofiq kelajakdagi muntazam shug'ullanadigan faoliyatni tanlashga yordam berishdir. O`quvchilar uchun kasb tanlash muhim qaror ekanligi hayotidagi kasbning o'zini uning rivojlanishi va farovonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ba'zi hollarda o`quvchilar orasida kasb tanlashda jiddiy xatoliklarga y'ol qo'yilganiga duch kelamiz. Ularda ko'pincha do'stlari ta'siri ostida (jamoadan ajralib qolmaslik uchun), mutaxassislikni shu sohada ishlayotgan insonning unga yoqishi yoki yoqmasligiga ko'ra, kasbning tashqi tomonlariga qiziqishiga ko'rava moliyaviy jihatiga ko'ra. Shu jarayonda o`quvchilarga kasb tanlashda aniq ma'lumotlarga ega bo'lish zarurligi va o'zining shaxsiy layoqati, qobiliyati va moyilligiga ko'ra kasb tanlash lozim ekanligi haqida ma'lumot berish kerak. Dunyo miqyosida qanchadan-qancha insonlar ilgari kasb tanlash vaqtida noto'g'ri tanlov qilishganidan aziyat chekishmoqda, bu albatta ularning foydali ish koeffitsientiga salbiy ta'sir qilish bilan bir qatorda ruhiy zo'riqish, doimiy stress va bora-bora agressivlikka olib boradi. Gerontopsixologiyada ma'lum bo'lishicha ko'pchilik nafaqa yoshiga yaqinlashgan insonlar, hayotda erishgan narsalaridan ko'ngli to'lmay chuqur depressiyaga tushib qolishi kuzatilgan va aksincha kasbi o'zining sevimli mashg'ulotiga aylangan insonlar esa ish faoliyatidan, jamoasidan ayrilgisi kelmay qoladi, unday insonlar kasbini hayotining bir bo'lagi sifatida qabul qilganlardir. Biz ham huddi shunday misollar orqali maktab o`quvchilarining to'g'ri tanlov qilishiga yordam berib, ularning qobiliyat va qiziqishlarini to'g'ri aniqlab yo'naltirishimiz kerak.

Faoliyat inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq o'zgartirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-tarixiy turmushning o'ziga xos shaklidir. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi. Faoliyat jarayonida inson shaxsi, [har tomonlama va bir butun](#), yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi.

O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra [bilishga doir](#), ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko'ra tanlangan sohalardan iborat. Kelajakda inson tanlagan kasbidan zavqlanib ishlamasa, uning ishida samaradorlik

past darajani ko'rsatib, u doimo o'z faoliyatidan nolish bilam bir qatorda fiziologik va psixologik toliqqan kayfiyatda o'z ishiga sovuqqonlik bilan yondashish holatlarini kuzatishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida, oilada bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash odatda maktabgacha bo'lgan yoshdan boshlanadi. Ana shu paytdan e'tiboran bolalarni bo'lgusi kasbni tanlashga tayyorlash amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini muntazam ravishda o'rganish zarur. Kasb tanlashda xato qilmaslik uchun bolalarga avvalo maktab va oila yordam berishi va yo'naltira bilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. –Toshkent:
2. Boltaboev S.A. Tolipov O'.Q. Umumiy o'rta talim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. –Toshkent: TDPU, 2000.
3. Davletov K.D. va boshqalar. O'quvchi yoshlarni ishga va ishlab chiqarishga tayyorlash. -T. O'qituvchi, 1984.
4. Jo'raev R.X, Tolipov O'.Q. Sharipov Uzluksiz talim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirish.
5. Abdurahmonov F. “Kasb psixologiyasi”.